

TEMURIYLAR DAVRIDA MARKAZIY HOKIMIYATDAGI MANSABLAR VA UNVONLAR

Tojiboyev Munavvarjon No‘monjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg‘ona akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Temuriylar davrida markaziy hokimiyatdagi mansablar va unvonlarning ta‘rifi, uning vazifalari davlat hayotidagi o‘rni kabilar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *maishiy, fotoxizmatlar, sartaoshlik, madaniy-maishiy va sport buyumlarini ijaraga berish xizmatlari, ustaxona, maishiy xizmat uylar, hammomlar.*

XIII asrning birinchi yarmiga kelib Movarounnahr hududi mo‘g‘ullar tomonidan egallandi. Mazkur sulolaning 150-yil davom etgan boshqaruvi, o‘lkaning turmish-tarziga jiddiy zarar yetkazgan. Natijada mazkur mintaqa XIV asrning o‘rtalariga kelib siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida tarqoq holatga kelib qoldi. Bunga bir tomondan mo‘g‘ul hukmdorlarining bosqinchilik yurishlari sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan mahalliy amir va beklarning o‘zaro kurashlaridir. Shunga o‘xshash masalalarning kuchayishi, mahalliy aholining iqtisodiy va siyosiy sohalarida aziyat chekishga olib kelgan. Bu esa o‘z navbatida markazlashgan mustaqil davlat tuzish ehtiyojni aholi orasida kuchaytirgan.

XIV asrning 60-yillarida boshlab Amir Temur siyosiy jarayonlarga kirishdi. Sohibqironning bosh maqsadi markazlashgan davlat tuzish edi. Movarounnahrda mo‘g‘ullarni quvib chiqarish, mahalliy amir va beklarning o‘zaro kurashlariga chek qo‘yish Amir Temurning dastlabki vazifalaridan biri bo‘lgan. Shunindek, XIV asrning 60-yil o‘rtalariga kelib Movarounnahrda yuzaga kelgan Sarbadorlar harakatini bartaraf etish ham Sohibqiron davlatchilik faoliyatining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan. Chunki mazkur harakatning tartibsizligi, aniq maqsad va vazifalarning yo‘qligi, harbiy jihatdan zaifligi Amir Temurning markazlashgan davlat qurish g‘oyasiga to‘sqinlik qilishi mumkin edi. Buni yaxshi anglangan Sohibqiron harakat yetakchilari bilan liberal munosabatda bo‘lgan. Eng muhimi Amir Husayn tomonidan Sarbadorlar harakatining yo‘q qilinishi, Amir Temur siyosiy faoliyati uchun muhim qadam bo‘lgan. Amir Qazang‘an davrida boshlab Movarounnahr boshqaruvida sohta xonlar tayinlana boshlangan. Amir Husayn va Amir Temur davrida ham mazkur jarayon davom etdi. Misol tariqasida ikki amir boshchiligida 1364-yil Qobulshohni xonlik martabasiga ko‘tarilganligi temuriylar davri manbalarida bayon etilgan. Amirlar tomonidan tashkil etilgan mazkur siyosiy jarayonning asosiy sabablaridan biri Movarounnahr mintaqasida mo‘g‘ullar boshqaruvining jamiyat hayotiga chuqur ta‘siri bo‘lgan. Hattoki Sohibqiron 1370-yilda Movarounnahr hukmdori bo‘lgandan keyin ham mazkur an‘anaga rioya etgan. “Bunday sharoitda, – deb yozadi A. Ziyo, – Amir Temur o‘zini rasman xon deb e‘lon qilolmasdi. Chunki bu raqiblarga bahona bo‘lib, norozilik va xurujlarga turtki bo‘lishi turgan gap edi. Zero, xuddi shu yillar taomiliga ko‘ra siyosiy hokimiyat chingiziylar xonadoni ixtiyorida bo‘lishi kerak edi”.

Shunindek, Amir Temur o‘z davlatini qulay va muvaffaqiyatli boshqarish maqsadida markaziy va mahalliy hokimliklarga bo‘ldi. Mazkur jarayonning ish tartibida ikki hokimlik

o'rtasidagi aloqalar va ularning mutanosiblik darajasi e'tiborga olindi. Sohibqiron bu idoralarni har tomonlama qulay, tezkor, yengil, sodda va iqtisodiy jihatdan tejamkor qilib tuzishga intildi¹⁰¹. Ularda faoliyat olib borayotgan kadrlarni rahbarlantirish maqsadida turli xil mansab va unvonlar tayinlangan. Sohibqiron davrida markaziy hokimiyatdagi eng birinchi mansab amir bo'lgan. Chingizxon avlodidan bo'lmagan Amir Temur o'zini xon emas amir deb atagan. Amalda Sohibqiron mamlakatni mutloq mustaqil boshqargan bo'lsa-da, uzoq yillar mobaynida qabul qilingan tartibni buzmas va soxta xonlar tayinlab o'z davlatini idora etdi. Biroq soxta xonlar tayinlash tartibi Temur va Temuriylar davlatida 1402-yilgacha amalda bo'lgan. Sohibqiron tomonidan 1388-yilda tayinlangan so'nggi xon Mahmudxon bo'lib, u vafoti ya'ni 1402-yilgacha Temuriylar saltanatida xoni vazifasini bajargan. Lekin Mahmudxon nomidan bir necha yillar davomida farmonlar chiqarilgan. Hattoki uning nomi ostida tanga ham zarb ettirilib keng muomlada bo'lgan.

Amir Temur va Temuriylar davlatida muhrdor mansabi markaziy hokimiyat boshqaruvida muhim lavozim hisoblangan. Ular asosan hukmdorning eng yaqin kishilaridan tayinlangan. Sohibqiron davrida Iku Timur, Shayh Muhammad kabi shaxslar muhrdorlik vazifasini bajarishgan. Ular Amir Temur yurishlarida faol ishtirok etishi bilan ham nom qozonishgan.

Yazdiy, – tavachlar «Ul erni beklarg'a ulashturg'aylar!» Tavachilar yurib yerni beklarg'a qismat qildilar. Bir oyda ariqni qazdirib tayyor qildilar". Hukmdorning ov hayvonlari tashkillash jarayoniga ma'sul bo'lgan shaxs qushbegi bo'lgan. Shunindek, mazkur mansab egasi o'rgatilgan qushlar orqali aloqalar olib borishga javobgar bo'lgan. Xonliklar davrida mazkur mansabdor shaxslarning nufuzi ortib borib, vazir qushbegi deb ham atalgan. Bizning fikrimizcha Temuriylar davrida qushbegi termini paydo bo'lgan. Bunga muarrix Xondamirning quydagi ma'lumotlari asos bo'ladi. "Mavlono Aloiddin Ali Qushchi zamon olimlarining eng bilimdoni va davron hakimlarining eng yaxshisi edi. U kichik yoshdan Mirzo Ulug'bekning shafqat nazariga yoqqan bo'lib, ul oliy martabali podshohning tarbiyati barokati tufayli ilmda oliy darajalarga yetishgandi. Mirzo Ulug'bek uni "o'g'lim» deb chaqirar edi va xususiyatini kamolga yetkazish uchun gohida qo'lga ov qushlarini o'tkazib qo'yardi. Shunga ko'ra «qushchi» laqabi bilan tanildi".

Temuriylar davridagi eng nufuzli unvon ko'ragon bo'lgan. Hukmdorlar chingiziylar xonadonidan bo'lgan malikalarga uylanishgandan keyin shunday unvon bilan atalgan. Bu esa davlat boshqaruvida amirlarga qonuniy hokimiyatini yuridik jihatdan rasmiylashtirishga ham hizmat qilgan. Sohibqiron, Jahongir Mirzo, Mironshoh Mirzo hamda Mirzo Ulug'bek shunday unvonga ega bo'lganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс –тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳи луғатлар А.Ўринбоевники. – Т.:Фан.1969. – 464 б.

2. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.

3. Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия

тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX асрлар): Тарих фан. номз... дисс. –

Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 б.

4. Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва темурийлар даврида –Фарғона: “Фарғона”, 2019. – 288 б.

5. Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми: юридик фан. номз...дисс. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 192 б.

6. Uzoqov Maxkamjon Oybek o'g'li. “Temur va temuriylar davrida unvonlar tizimi” magistrli dissertatsiyasi.